

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT  
HAYOTIDAGI TA’SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI

**Farxad Joldasov Bayrambaevich**

*Namangan Davlat Unversiteti yuridik fakulteti yuristprudensiya yunalishi  
YU-AU23.guruh 1-bosqich talabasi*

**Anontatsiya:** *Ushbu maqolada “axborot”, “axborot huruji” tushunchalarining mohiyati, ommaviy axborot vositalarining qanday huquqlarga egaligi boshqa tomondan ularning majburiyatlari, axborotning madaniyati, va axborot hurujlarining manbalari, ularni ijtimoiy muhitda amalga oshishi. Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta’sirchan mafkura vositasi, usullari ekanligi va oxirgi paytlarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotganligi, ularga qarshi turish va qarshi kurashish yo’llari haqida aytib o’tilgan.*

**Kalit so’zlar:** *Ommaviy axborot vositalari (televideniye, kompyuter, Internet, uyali telefon), axborot, saytlar, burchlari.*

**Ommaviy axborot vositalari** (qisqartmasi: OAV) keng ommaga axborot yetkazuvchi vositalardir.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazeta, jurnal, axborotnoma, bulleten va boshqalar) va yoki elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari OAV, deb ko‘rsatilgan

Internet bugungi axborot makonining muhim bo‘g‘iniga aylanib ulgurdi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda 2 milliarddan ortiqroq kishi u yoki bu darajada undan foydalanishi ham mazkur fikrlarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Hozirgi kun, ya’ni XXI Asr Internet yosh avlod orasida eng keng tarqalgan axborot manbayiga aylanib ulgurdi. Internet sahifalari sayyoramizning eng chekka burchaklaridan inson faoliyatining turli sohalaridagi eng yangi yangiliklarga to‘la. Internet-media eng zamonaviy va qulay ommaviy axborot vositalaridir. Bu juda qulay. Internet doimiy ravishda takomillashib bormoqda,



Internet-media o'zgarib, tobora kengroq auditoriyani jalb qilmoqda. Ko'pgina an'anaviy ommaviy axborot vositalarining Internetda reklamani o'z ichiga olgan o'z saytlari mavjud hisoblanadi.

Bilamizki, Axborot ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotning muhim omilidir. Uning jamiyat hayotidagi ahamiyati kundankunga ortib, ma'lumotlar bilan ishlash usullari o'zgarishi va yangi axborot texnologiyalarni qo'llash sohalarining kengayishi kuzatilmoqda. Axborot hajmining borgan sari ko'payishi XX asrning ikkinchi yarmidan yaqqol namoyon bo'ldi. O'tgan asrning 70- yillarida axborot hajmi har 5-7 yilda ikki barobarga o'tgan bo'lsa, 80-yillarda bunday o'sish har 20 oyda, 90-yillarda esa har yili kuzatilgan. Axborot hajmining bu qadar ortib ketishi insonning axborotni butunligicha qabul qilish imkonini cheklab qo'yayotganini ta'kidlash lozim

Shu o'rinda Prezidentimizning 2017 yil 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo'llagan tabrigida ta'kidlanganidek, —Xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydonchasiga, erkin fikr minbariga aylangan taqdirdagina biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz degan so'zlaridan boshlasak,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yana bir 2019 yil 27 iyundagi —Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish boyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori mazkur sohani yanada rivojlantirishda g'oyat muhim qadam bo'ldi. bu qaror ommaviy axborot vositalarining faoliyatini kengaytirish va ularni rivojlantirish uchun yaqqol misol desak to'g'riroq bo'ladi .

Endi o'tmishga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, birinchi prezidentimiz I.Karimovning olamdan o'tishi respublikamiz aholisini chuqur qayg'uga soldi, xalqimiz uchun katta, o'rnini to'ldirib bo'lmas yo'qotish bo'ldi. Bu kutilmagan holat edi. O'z navbatida bu biz uchun katta sinov bo'ldi va u davom etmoqda. Shunday vaziyatda ham g'alamislar, mamlakatimizga o'z ta'sirini o'tkazishni istayotgan kuchlar tomonidan g'arazli harakatlar nafaqat davom ettirildi, balki kuchaytirildi ham. Davlatimizga nisbatan ta'sir o'tkazishni reja qilgan kuchlarning malaylari hisoblangan ayrim axborot vositalari, “jurnalistlar”, “huquq himoyachilari”, davlatimizdan xafa bo'lgan shaxslar tomonidan parlamentimiz 8- sentabrda qabul qilgan Prezident vazifasini vaqtincha bosh vazirga topshirish haqidagi qarorga nisbatan axborot xuruji tashkil qilindi.



Ommaviy axborot vositalarining tasir kuchini ko'rsatadigan shunday bir gap bor "har qanday puch g'oya, uydirma, haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa - "haqiqat" tayyor bo'ladi, odamlar unga chippachin ishonadilar". Oxirgi paytlarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol - axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o'q singari insonni jismonan yo'q qila olmasada, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Zamonaviy OAV, televideniye, kompyuter, Internet, uyali telefon va boshqa vositalar, insonlar, ayniqsa, yoshlarning milliyliigi, tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirib yubormoqda. Taraqqiy etgan mamlakatlarning mazkur vositalar yordamida jahon xalqlari ongi, dunyoqarashi va turmush tarzini bir qolipga solish hamda unga o'zlari shakllantirayotgan «ommaviy madaniyat»ni singdirishi bosh strategik siyosatga aylantirayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizdagi ilg'or g'oyali jamoatchilik, xalqaro munosabatlarda, mintaq va milliy munosabatlarda, ijtimoiy voqelikda yochlarga axborotdan ijobiy foydalanish, OAV ning tarbiyaviy yo'nalishni va metodologiyasini yaratish ustida faoliyat olib bormoqdalar

Darhaqiqat, ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqloq g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq.

Axborot xurujiga berilgan turlicha ta'riflar mavjud. Rossiyalik ayrim mutaxassislarning fikricha axborot xuruji bu - raqib ustidan axborot hukmronligiga erishish va shuning evaziga unga moddiy, mafkuraviy yoki boshqacha zarar yetkazish uchun davlatning harbiy kuchlari, hukumati hamda xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar va operasiyalar majmuasidir deb, aytilgan .

Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak O'zbekiston axborot makoni degan tushunchani mamlakatimizga bugungi kunda ta'sir ko'rsatayotgan, katta axborot bosimi va yuklamasini berayotgan, davlatlar yoki axborot sub'yektlaridan himoyalangan (ya'ni himoyalangan deganimizda davlatning yopilishi nuqtai nazaridan emas, balki davlat ichidagi axborot aylanishi erkinligi nuqtai nazaridan), tahlillarning kuchliligi asosida yaratilgan axborot maydoni sifatida tavsiflasak bo'ladi. Aynan prezidentimiz tomonidan Xavfsizlik



Kengashining kengaytirilgan majlisida bu narsaga e'tibor qaratilgani juda ham muhim hisoblanadi. Davlat rahbari mazkur masalani boshqa yig'ilishlarda ham aytishi mumkin edi. Lekin ushbu mavzu harbiylar ichida tilga olindi. Bugungi kunda davlat harbiy xavfsizligi asosining teng yarmini axborot xavfsizligi tashkil etadi. Axborot xavfsizligi bevosita tahliliy ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lishi va xalqqa real voqealarni yetkazish muhimligini prezidentning aynan shu nutqidan bilishimiz mumkin. Demak, axborot maydonining eng muhim xususiyati shundan iboratki, bu yerda propaganda bo'lmasligi kerak, bu yerda milliy manfaatni ko'zlagan holda dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy voqealarga baho berish masalasi ko'rilyapti.

Unda o'z-o'zini o'ldirishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 mingdan, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlarning mavjudligi ham buning isboti bo'la oladi deb o'ylayman. Mutaxassislar o'tkazgan maxsus tadqiqotlar mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik xarakterga egaligini ko'rsatadi. Mavjud maxsus dasturlar internet tarmog'idagi pornografiyaning faqat 90 foizinigina filtrlaydi, yani kompyuterdan foydalanuvchining ixtiyoridan tashqarida ekranda paydo bo'lishi yo'lga to'siq qo'ya oladi. Demak, qanchalik harakat qilinmasin pornografik mazmunga ega saytlar internetdan foydalanuvchilarning xohish-istagidan qat'iy nazar, ularning diqqatini torta oladi. Statistika ma'lumotlarga to'xtaladigan bo'lsak, Jumladan, tadqiqotlarda 42 foiz bolalar va o'smirlar onlayn pornografiya ta'siriga tushishi qayd qilinadi. Shuningdek, mutaxassislarning malumotlariga ko'ra, internet orqali tarqatiladigan komyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga yetishish uchun shunday zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zi bosh maqsad hisoblanadi. Internet rivoji, u berayotgan imkoniyatlar o'ziga xos qaramlikni ham keltirib chiqarmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan foydalanuvchilarning taxminan 10 foizi unga mustahkam bog'lanib qolgan. O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni -22,1 milliondan oshdi. Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni -19 millionni tashkil etmoqda.

Mamlakat bo'yicha aholi punktlarining mobil aloqa bilan qamrab olinishi darajasi 97 foizni, mobil internet qamrovi esa 87 foizni tashkil etdi. 26 mingga yaqin "uz" domenidagi veb-saytlar faoliyat olib bormoqda. 200 dan ortiq veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatga olingan. Internetning ta'sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko'tarilayotgan masalalarning



dolzarbligi hamda tahliliylik darajasi va mavjud muammolarning samarali echimlarini taklif etishiga ko'p darajada bog'liq

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov takidlaganlaridek, shuni unutmaslik kerakki, “bugungi kunda inson manaviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin” deb aytib o'tgan edilar

BMT Bosh assambleyasi tomonidan 2006-yil 8-sentabrda qabul qilingan “BMTning global aksilterror strategiyasi”da yangi uslublar qatorida bioterrorizm hamda internetdan terror maqsadida foydalanishning oldini olish choralarini kuchaytirish alohida qayd etilgan. 2007-yil noyabrda AQSH Davlat departamenti “Tashqi raqamli aloqalar guruhi” nomli maxsus axborot dasturini joriy qilgan. Dastur maqsadi – arab, fors, urdu va boshqa tillardagi internet saytlari, chat va bloglarda AQSH siyosati haqidagi dezinformatsiya (noto'gri ma'lumotlar)ga qarshi kurash hisoblanadi. Dasturga ko'ra, zarur hollarda, departament xodimlari internet orqali rasman muloqotga kirishi va savollarga javob berishi, aniq hujjatlar asosida ma'lumot keltirishi ko'zda tutilgan. So'nggi yillarda terroristik tashkilotlar g'oyalari targ'ib qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga oshgan. Xususan, 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo'lsa, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanadigan 7000 dan ortiq internet saytlari mavjud bo'lib, ularga xizmat ko'rsatuvchi portallar soni ortib bormoqda. Bunday internet saytlar to'satdan paydo bo'ladi, vaqt o'tgach yo'qoladi, mazmunini o'zgartirmagan holda, tez-tez nomlanishi va domenini o'zgartirib turadi.

### XULOSA

Xozirgi axborot poligonlarini tartibga solish uchun:

-Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmogi, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va mobil messenjerlarda elon qilinayotgan aholining keng qatlamlari fikriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarning doimiy monitoringini amalga oshirsin hamda tegishli davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari munosabat bildirishi uchun ularga yuborilishi maqsadga muvofiq.

Hayotimizdagi bugungi ulkan o'zgarishlar, islohotlarimiz mantig'i barchadan yangicha ishlashni, yangi g'oya va tashabbuslar bilan maydonga chiqishni talab etmoqda. Shu ma'noda, ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatni mustahkamlash, milliy matbuotimiz xalqaro maydonda munosib o'rin egallashiga erishish, internet jurnalistikasini rivojlantirish, noshirlik ishi, kitob savdosi, obuna masalalarida



bozor mexanizmlarini keng joriy etish, ochiqlik va sog‘lom raqobat muhitida ishlashni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha alohida dasturlar asosida, yo‘l xaritalari asosida faoliyat tashkil etish zarur

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
2. <https://m.kun.uz/news/2023/06/27/prezident-oav-xodimlariga-tabrik-yolladi-soha-vakillaridan-bir-guruhi-mukofotlandi>
3. [clid=2422917&search\\_source=yaru\\_desktop\\_common&search\\_domain=yaruvositalari-faoliyati-ozgarish-va-muammolar](https://m.kun.uz/news/2023/06/27/prezident-oav-xodimlariga-tabrik-yolladi-soha-vakillaridan-bir-guruhi-mukofotlandi?clid=2422917&search_source=yaru_desktop_common&search_domain=yaruvositalari-faoliyati-ozgarish-va-muammolar).
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ommaviy\\_axborot\\_vositalari\\_\(aloqa\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ommaviy_axborot_vositalari_(aloqa))
5. Karimov I.A. “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch”. T.: -2008
6. ommaviy axborot vositalari tog‘risidagi qonun (5modda)
7. <https://uz.modern-info.com/13627593-mass-media-is-pess-radio-television-as-mass-media>
8. <https://lex.uz/docs/-1106870>
9. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoyat Kodeksi” (155 – modda, terrorizmga qarshi)-1994.
10. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН–III РЕНЕСАНСИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОЙ ҲИМОЯСИ PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022) - Copenhagen:2022. ISSUE 13 – 226 p. 94-99
11. Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna. Voyaga yetmaganlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMİY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 10-16-betlar
12. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMİY JURNALI. 7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. 203-207. <http://www.bestpublication.org/>
13. Саидисаков Саидахроп Саидакромович. ЭМОТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИКАТЕГОРИЯ ЭМОТИВНОСТИ. 7 – ТОМ 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. <http://www.bestpublication.org/>. 198-202



14.Chuboyeva Ozodaxon “New Uzbekistan: Administrative Management Reform” Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367.  
<https://zienjournals.com>

15.Kuvonbekovna C. O. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI //PEDAGOG. –2024. – T. 7. – №. 2. – C. 194-198

